

instituti tomonidan ishlab chiqilgan IF-MAP metodologiyasida taklif qilingan IMIQIning shakllantirish va rivojlantirish komponentlari/omillari Islomiy moliya industriyasining qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmasini rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, ushbu metodologiyadan O'zbekistonda Islomiy moliya industriyasini shakllantirish va rivojlantirish modelini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARINING ISLOM MOLİYASI MAHSULOTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Vazirov Azamat Yoqubjonovich
Namangan Davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada jahon moliya bozorida keng o'rin olib rivojlanib borayotgan islom moliyasining kichik biznes sub'yektlarida qo'llanilishi tahlil etilgan. Kichik biznesni rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kuchaytirish va modernizatsiya qilishga islom tamoyillariga asoslangan moliyaviy resurslarni va investitsiyalarni jalb etish masalalari, islom moliyasini rivojlantirish imkoniyatlari va bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, islom moliyasi, islom moliya tizimi, mushoraka, muzoraba, islom moliyasi tamoyillari, baliqchilik xo'jaligi.

Mamlakatimiz aholisining 90 foizdan ortig'ini islom diniga e'tiqod qiluvchilar tashkil qilganligi sababli aholi va kichik biznes vakillari o'rtasida islom moliyasiga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishga oid iqtisodiy islohotlar amalga oshirishda ushbu holatni inobatga olgan holda ular faoliyatini moliyalashtirishning dunyoda ham ommalashib borayotgan islom moliyasini milliy moliya bozorida joriy etishga e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi"³⁵⁸. Shu munosabat bilan mamlakatimizda islom iqtisodiyoti va moliyasining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish zaruriyati yuzaga chiqdi.

Tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistondagi kichik biznes sub'yektlarining 80 foizi ichki manbalar hisobidan moliyalashtiriladi va ularning chorak qismigina tijorat banki kreditlaridan foydalanadi. Tijorat banklarida esa kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun sanoqli mahsulotlarga mavjud. O'zbekistonda islom moliyasi bo'yicha biznes vakillari hamda aholi ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra biznes sub'yektlarining 38 foizi, jismoniy shaxslarning esa 56 foizi diniy qarashlari sabab tijorat banklari kredit xizmatidan foydalanmaydilar.

³⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 29.12.2020.

O'zbekistonda islom moliya muassasalari ish boshlasa yoki islom moliya xizmatlari taklif etilsa, ushbu moliyaviy xizmatlardan foydalanishga tayyor ekanliklarini bildirishgan. Shunday ekan kichik biznes sub'yektlari faoliyatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ayrim islom moliyasi mahsulotlarini o'rganib chiqamiz.

Mushoraka – arabchada «sherikchilik qilish» ma'nosini bildiradi. Tijorat va savdo talqinida esa barcha hamkorlar olingan foyda va zararni baham ko'ruvchi sherikchilikka aytiladi.

Muzoraba – sherikchilikning maxsus turi bo'lib, unda bir tomon ikkinchi tomonning tijoratiga sarmoya kiritish bilan sherikchilik qiladi. Sarmoya kiritish «rabbul mol» deb ataluvchi birinchi sherik tomonidan amalga oshirilsa, ish yuritish «muzorib» deb nomlanuvchi ikkinchi tomonning majburiyati hisoblanadi³⁵⁹.

Ma'lumki, kichik biznes sub'yektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash har doim ham dolzarb masala. Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'pchilik tadbirkorlar faoliyatlarini tashkil etish va rivojlantirishda moliyaviy resurslarga ehtiyoj yuqori bo'lsa ham o'z e'tiqodlaridan kelib chiqib bank kreditlaridan foydalanishni lozim ko'rmaydilar.

Misol uchun, hozirgi kunda mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan va aholini sifatli baliq mahsulotlari bilan ta'minlab kelayotgan kichik biznes sub'yektlarida tashkil etilgan baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarda mablag' yetishmovchiligi sababli mavjud suv havzalaridan to'lig'icha foydalanish yoki intensiv usulda baliq yetishtirishni yo'lga qo'yishda imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Mana shu o'rinda islomiy moliya mahsulotlaridan mushoraka yoki muzorabadan foydalanish mumkin bo'ladi.

Mavsum boshlanishida baliq yetishtiruvchi tadbirkorlarda aylanma mablag'lari yetishmovchiligi sababli mavjud suv havzalaridan to'lig'icha foydalanish imkoniyati cheklanib qolganda muzorabadan foydalanish mumkin. Bunda mablag' egasi baliqchilik xo'jaligiga sarmoya kiritish bilan sherikchilik qiladi. Ish yuritish baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkor majburiyati hisoblanadi. Rabbul mol, ya'ni sarmoya kirituvchi butun mavsum davomida amalga oshirilish lozim bo'lgan xarajatlarni moliyalashtiradi.

Muzorib, ya'ni baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkor esa biznesni yuritish va yakunda ijobiy natijaga erishish uchun mas'ul bo'ladi. Rabbul molning esa biznesni, ya'ni baliqchilik xo'jaligini boshqarish huquqi bo'lmaydi. Faoliyatdan olinadigan foyda taqsimoti tomonlar o'rtasida avvaldan kelishib olingan bo'ladi. Ko'rilgan zarar esa rabbul mol zimmasida bo'ladi. Muzoribning ko'rgan zarari esa uning qilgan mehnati foydasiz tugallangani bilan cheklanadi.

Kichik biznes sub'yektlarida tashkil etilgan baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarda intensiv usulda baliq yetishtirishni yo'lga qo'yish

³⁵⁹ Tursunov A., Xudoyberdiev A. Islom moliyasi: Kecha va bugun. Maqola. <https://islom.uz/maqola/23137>. «Hilol» jurnali 5 (62) son, 2024y oktyabr

uchun zamonaviy texnologiyalarni sotib olishga katta miqdorda mablag' talab etilganligi sababli bunda tadbirkorlar mushorakadan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun avvalo sohaning yetuk mutaxassislari tomonidan ko'rib chiqilgan va joiz deb topilgan, mukammal mazmunga ega mushoraka shartnomasi tuziladi. Intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyalari sherikchilik asosida sotib olinadi. Foyda va zarar shartnomaga muvofiq sheriklarning kiritgan sarmoyalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Buning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, sheriklar biznesni boshqarishda faol qatnashish huquqiga ega bo'ladilar.

Kichik biznes sub'yektlari va sarmoya egalari bir-birlarini topishlari uchun axborot-texnologiyalari rivojlangan hozirgi zamonda islom moliya mahsulotlarini taklif etuvchi elektron platformalar faoliyatini rivojlantirish zurrur. Shuningdek, amaldagi bank faoliyati va soliq bo'yicha qonunchilik islom huquqi tamoyillari asosida ishlaydigan banklar uchun moslashtirish lozim. Soha mutaxassislari bo'lgan ehtiyojni ta'minlash uchun islom moliyasi va banki bo'yicha mutaxassislarning oliy ta'lim tizimida tayyorlanishi kerak.

Shuningdek, aholining islom moliyasi haqida bilim va tushunchalarni hosil qilish uchun amaliy ishlarni olib borish kerak. Shundagina islomiy moliyalash tizimi orqali mazkur qatlam ham to'liq qamrab olinadi va omonatlarini iqtisodiyotga jalb etish, ulardan esa oqilona foydalanish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ya'ni bu orqali «zahiradagi» ichki investitsiyalarni iqtisodiyotimizning o'sishiga jalb qilish, xufyona iqtisodiyot salmog'ini kamaytirish, eng muhimi, kichik biznesni rivojlantirishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkin, aynan islomiy moliyalash tizimi aholi qo'lidagi bo'sh mablag'larni real iqtisodiyotga jalb qilish orqali ham iqtisodiyot, xususan kichik biznes sohasi va aholi farovonligini sezilarli darajada faollashtirishga qo'shimcha imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 29.12.2020.

2.Baydaulet Ye.A.Islomiy moliya asoslari. Toshkent."O'zbekiston", 2019y

3.Jo'raev B. Islomiy moliyalar va bank tizimi. T.: O'zbekiston, 2014.

4.Abdusattorov F. O'zbekistonda Islom moliyasi: qonunchilikdagi o'zgarishlar, yutuq-kamchiliklar va takliflar. Maqola. <https://kun.uz/kr/news/2023/07/04/ozbekistonda-islom-moliyasi-qonunchilikdagi-ozgarishlar-yutuq-kamchiliklar-va-takliflar>

5.Tursunov A., Xudoyberdiev A. Islom moliyasi: Kecha va bugun.Maqola. <https://islom.uz/maqola/23137>. «Hilol» jurnali 5 (62) son, 2024y oktyabr

6.Islom moliyasi haqida nimalarni bilamiz? Maqola. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/>